

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 21-noyabr, payshanba, 135 (24.012)-son

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL IQTISODIYOT” YILI

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI NOMZODINI KO‘RIB CHIQISHGA BAG‘ISHLANGAN MAJLISIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!

Qadrli majlis ishtirokchilari!

Bugun yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq, ilk bor quyi palatada Bosh vazir lavozimiga nomzod va Hukumatning kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ko‘rib chiqib, tegishli qaror qabul qilishimiz zarur.

Bu masalaning naqadar muhimligi, o‘ylaymanki, hammamizga yaxshi ayon. Nega deganda, mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik va joriy vazifalarni amalga oshirishda, barcha bo‘g‘indagi ijro organlari, avvalo, Hukumat va uning rahbari zimmasidagi mas’uliyat hozirgi murakkab zamonda har qachongidan ham ortib bormoqda.

Shu bilan birga, bugun mutlaqo yangi vakolat va vazifalarga ega bo‘lgan Hukumat shakllanmoqda. Bu fikrni Konstitutsiya darajasida birinchi marta kambag‘allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi, investitsiya, ekologiya kabi muhim yo‘nalishlarda Vazirlar Mahkamasining majburiyatlari belgilab qo‘yilgani ham tasdiqlaydi.

Xalqimiz bugun ana shunday hal qiluvchi masalalar bo‘yicha yangi Hukumatdan aniq natijalarni kutmoqda.

Asosiy masalaga o‘tishdan oldin o‘tgan 5 yilda har tomonlama puxta o‘ylab qabul qilingan dasturlar ijrosi qanday ta’minlangani haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Avvalo, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi. Aholi jon boshiga daromad 2018-yildagi 1 ming 600 dollardan 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda. Jahon banki 2024-yilda O‘zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o‘sayotgan 3 ta davlat qatoridan joy olganini e’tirof etdi. Kambag‘allik darajasi so‘nggi 4 yilda 23 foizdan 11 foizga tushdi. Bu yil yana 106 ming oila kambag‘allikdan chiqarilib, 9 foizga tushishi kutilmoqda.

Eksport qariyb 2 barobar o‘sib, ilk bor 25 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralarimiz esa 40 milliard dollardan oshdi. O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 6 karra ko‘payib, buning hisobiga 1,5 million yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratildi. Yalpi ichki mahsulotda investitsiyalar ulushi 30 foiz darajasida ta’minlangani iqtisodiyotimiz rivoji uchun kelgusi yillarda ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Ilgari to‘liq davlat tasarrufida bo‘lgan sohalar, ya’ni, energetika, kimyo, aviatsiya, geologiya, metallurgiya, mashinasozlik, ta’lim va tibbiyotda xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga keng yo‘l ochganimiz ularning rivojida kuchli omil bo‘ldi.

Ayniqsa, energetika sohasida tom ma’noda tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi hajmi 1,5 karra o‘sib, 80 milliard kilovatt-soatga yetgani ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi. So‘nggi uch yilda umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Muqobil energiya ulushi o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘paydi.

Yana bir muhim o‘zgarishga e’tiboringizni qaratmoqchiman. O‘tgan davrda 25 mingdan ziyod xususiy bog‘cha, 70 ga yaqin nodavlat oliygoh tashkil etilib, qamrov maktabgacha ta’limda – 74 foizdan, oliy ta’limda esa – 39 foizdan oshdi.

Ijtimoiy xizmatlar tizimida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha hududlarda “Inson” markazlari ochilib, ijtimoiy xodimlar tomonidan bevosita mahallalarda aholiga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Parijda bo‘lib o‘tgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida azmu shijoatli sportchilarimiz chinakam rekord natijalarni qayd etib, jami 39 ta medal, jumladan, 18 ta oltin medalni qo‘lga kiritdilar. O‘zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo‘lmagan bunday yutuqlar barchamizga yangi kuch-g‘ayrat baxsh etishi tabiiydir.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Jahon miqyosida hukm surayotgan bugungi o‘ta keskin va og‘ir sharoitda yurtimizda tinchlik va hamjihatlikni saqlab, iqtisodiyotimizda barqaror o‘sishni ta’minlab, mana shunday marralarga erishish oson bo‘lmaganini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Mana, o‘zingiz ko‘ryapsiz, aholimiz 37 milliondan oshdi. Kelgusi 5 yilda esa, Xudo xohlasa, 40 milliondan ortishi kutilmoqda. Bunday demografik o‘sish, albatta, katta imkoniyat, lekin, shu bilan birga, bu holat oldimizga yangi-yangi, o‘tkir vazifalarni qo‘yishi ham shubhasiz.

Ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish, ekologiya, energetika, transport, yo‘l, ichimlik suvi ta’minoti, aholini uy-joy bilan ta’minlash kabi muhim sohalarda xalqimizning talab va ehtiyojlari tobora o‘sib bormoqda.

Ana shunday dolzarb muammolarga samarali yechimlar topib, yangicha faoliyat olib borish Hukumat uchun jiddiy sinov bo‘lishi tabiiy, albatta. Bugun Bosh vazir lavozimiga tavsiya etiladigan nomzod ana shu masalalarning barchasini hisobga olib, ularning ijrosini ta’minlash yuzasidan o‘z dasturini taqdim etadi.

Muhtaram do‘stlar!

Biz “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida kelgusi yillar uchun katta marralarni belgilab olganimizdan xabaringiz bor. Xususan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan edik.

Ochiq aytish kerak, dastlab bunga ayrim kishilar shubha yoki ikkilanish bilan qaragani ham bor gap. Lekin, o‘z vaqtida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirganimiz, barcha imkoniyatlarni ishga solganimiz tufayli bu yilning o‘zida yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Yangi Hukumat, barcha rahbarlar birgalikda qattiq ishlab, islohotlarimiz shiddatini pasaytirmasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotimizdagi o‘zgarishlarni jadal davom ettirsak, 2030-yilga borib, iqtisodiyotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkaza olishimizga men albatta ishonaman.

(Davomi 2-sahifada) »»

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

A.N.Aripovni O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 20-noyabrdagi qarori bilan Bosh vazir lavozimiga A.N. Aripov ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq, **Abdulla Nigmatovich Aripov** O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri, 2024-yil 20-noyabr

Samarqandni rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimot qilindi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-noyabr kuni Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmushi farovonligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Samarqand mamlakatimiz markazida joylashgan, savdo, sanoat, turizm, transport va agrar tarmoqlar yaxshi rivojlangan hudud. Davlatimiz rahbarining 2023-yil avgustdagi tashrifi chog‘ida belgilangan vazifalar birin-ketin bajarilmoqda.

Endi yangi-yangi marralar olish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, 4,1 milliard dollarlik 120 ta loyihani amalga oshirish imkoniyati aniqlangan. Xususan, kelgusi yilda Samarqand viloyatida hududiy dasturlar doirasida kamida 1 milliard 850 million dollar investitsiyalarni o‘zlashtirish, 20 ming ish o‘rni yaratish va qo‘shimcha 1,2 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish hisob-kitob qilingan.

Masalan, Past Darg‘om tumani “Chimboyobod” hududida hokimlik zaxirasida turgan 234 gektar yerda maxsus sanoat zonasini tashkil qilish mumkin. Tadbirkorlar u yerga 500 million dollar investitsiya kiritib, farmatsevtika, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari va oziq-ovqat loyihalarini boshlashga tayyorligini bildirgan.

Yoki Zarafshon daryosi atrofidagi 25 gektar toshloq yer “Urgut” erkin iqtisodiy zonasiga qo‘shilsa, 30 million dollarlik loyihalarga joy bo‘ladi. Darg‘om kanali bo‘yida 35 kilometrli turistik yo‘lak, Narpay kanalida gastronomik ko‘prik tashkil etish orqali birinchi bosqichda 500 milliard so‘mlik loyihalar amalga oshiriladi.

Viloyatdagi yaylov va lalmi yerlarni iqtisodiy aktivga aylantirish kerak. Masalan, Samarqand tumanida 350 gektar lalmi yerda turistik-rekreatsion hudud tashkil qilib, mingta tadbirkorni joylashtirish va 3,5 mingta ish o‘rni yaratish mumkin.

Bulung‘urning tuprog‘i, iqlimi meva-sabzavotchilikka qulay. Tumandagi 6 ming gektar samarasi kam g‘alla maydonlari meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirilsa, gektaridan daromad 10 ming dollardan oshadi, 45 ming odam ishli bo‘ladi. Mahsulotlarning yarmi eksportga chiqarilib, qo‘shimcha 52 million dollar eksport tushumi ta’minlanadi.

Ishtixon, Urgut, Payariq va Qo‘shrabotdagi odamlar 35 ming gektarda uzum yetishtiradi. Lekin serdaromad navlarni ekish, kasallikka qarshi kurashish, yangicha agrotexnik tadbirlarga ko‘nikma yetishmagani uchun hosildorlik past. Shu bois Ishtixonda Bog‘dorchilik va uzumchilik ilmiy institutini tajriba stansiyasini tashkil qilish taklifi bildirilgan. Unda “in-vitro” usulida ko‘chatchilik yo‘lga qo‘yilib, uzumning “Gigant”, “Sirliboy”, “Avatar” kabi bozorbop navlari ekiladi. Natijada hosildorlik qo‘shimcha 25-30 sentnerga, eksport 20 million dollarga oshadi.

Shuningdek, Qo‘shrabot, Ishtixon, Nurobod, Past Darg‘om, Paxtachi va Urgutdagi konlar negizida foydali qazilmalarni qayta ishlash korxonalari ochish mumkin.

Yig‘ilishda Samarqand viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha chora-tadbirlarni taqdimot qildi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha qaror kiritish vazifasini qo‘ydi. Loyihalarni master-reja asosida joylashtirish, ko‘proq ish o‘rinlari va zamonaviy uy-joylar tashkil etib, aholi farovonligini oshirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

O‘zA.



“Build Pro EXPO-2024”

QURILISH SOHASIDAGI YANGILIKLAR

Jomboy tumanidagi SOF EXPO xalqaro ko‘rgazmalar majmuasida qurilish sohasidagi yirik - “Build Pro Expo-2024” ko‘rgazmasi ochildi. 20-22-noyabr kunlariga belgilangan ko‘rgazmada 60 ga yaqin mahalliy va xorijiy korxonalar qurilish, dizayn va arxitektura sohasidagi innovatsiyalarni namoyish etmoqda.

- Uchinchi bor o‘tkazilayotgan ko‘rgazmada loyiha institutlari, qurilish materiallari, bo‘yoq, mebel, sanitariya-texnik vositalar, yoritish moslamalari, plastik va alyuminiy eshik-rom texnologiyalari bo‘yicha yetakchi kompaniya va ishlab chiqaruvchilar qatnashmoqda, - deydi SOF EXPO xalqaro ko‘rgazmalar majmuasi rahbari Ahmadjon Tajiboyev. - Ishlab chiqaruvchilarning dizayn bo‘yicha so‘nggi yutuqlari, yangi texnologiyalar va "aqlli uy"lari ishtirokchilarni qiziqtirmoqda. - Shuningdek, ko‘rgazmada mebel, devor qog‘ozi va bo‘yoq ishlab chiqaruvchilar ishtirokida yangi turarjoy majmualari, interyer dizayni, qurilish sektorini raqamlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalar va IT infratuzilmasini loyihalash bo‘yicha panel sessiyalari o‘tkaziladi. Muhim tomoni ushbu ko‘rgazmada mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda Rossiya, Xitoy, Turkiya ishlab chiqaruvchilari asosan bo‘yoq, elektrotexnika, "aqlli uy" qurilmalari yog‘och mahsulotlari va birinchi marta Portugaliyadan kelgan korxona keramik va g‘isht ishlab chiqaruvchilarga zavod, tizimlashtirish uskunalari o‘rnatishni taklif etishmoqda. Ko‘rgazma davomida B2B formatidagi uchrashuvlar ham o‘tkaziladi.

Ko‘rgazmada "aqlli uy" va shaxsni aniqlovchi qurilmalar, xonadondagi elektr jihozlarini boshqarish, barmoq izi, ko‘z nuri bilan ishlovchi eshik qulflari, kuzatuv va qo‘riqlash kameralari, quyosh nuri bilan ishlaydigan, 180 darajada 8 tagacha tasvirni uzata oladigan yangi kameralar, ovoz bilan boshqariladigan darvozalarga qiziqish yuqori bo‘lmoqda. Shuningdek, qurilish sohasidagi yangi, chidamli va arzon mahsulotlar ham ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

- Ushbu ko‘rgazmada ikkinchi bor qatnashyapmiz va bu yil kompozit shifer, steklo to‘r, bazalt qoplamali plitka, ikkilamchi mahsulot o‘rnida ishlatiladigan shisha tolasi kabi o‘ndan ortiq mahsulotimizni keltirganmiz, - deydi “EVEREST” qurilish materiallari kompaniyasi menejeri Mirzo Karimov. – Ko‘proq shisha tolaga va kompozit shiferga qizish yuqori bo‘lmoqda. Ushbu shiferimiz odatiy shiferdan issiq va sovuqqa chidamli, yengilligi bilan ajralib turadi. Asosan ayvon va yengil konstruksiyali obyektlarga ishlatiladigan bu mahsulotimiz 20-25 yilgacha kafolatli xizmat qiladi. Mahsulotlarimizni asosan ichki bozorga yo‘naltiramiz, talabga ko‘ra eksportga ham chiqaramiz. Masalan, yil boshidan buyon Qirg‘iz Respublikasiga 300 million so‘mlik eksport qildik. Keyingi yildan boshqa qo‘shni davlatlarga ham mahsulot eksportini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ish olib boryapmiz.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI NOMZODINI KO‘RIB CHIQISHGA BAG‘ISHLANGAN MAJLISIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

To‘g‘ri, bu kichkina raqam emas. Lekin erishsa bo‘ladigan marra. Bu natijani ta’minlash orqali aholining turmush darajasi va sifatini keskin yaxshilashga erishamiz. Xususan, aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming dollardan oshirish, kambag‘allik darajasini 5 foizga tushirib, ehtiyojmand aholi uchun mustahkam ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish, tibbiyotga ajratilayotgan mablag‘larni 2 barobar ko‘paytirib, tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish va kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrovni ta’minlash, yiliga 150 ming kvartirali yangi zamonaviy uy-joylarni barpo etish imkoniyati yaratiladi.

Yana bir bor aytaman, bunday natijalarga erishish uchun kuch va imkoniyatimiz ham, salohiyatimiz ham yetadi.

Bu borada eng muhim yo‘nalishlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, makroiqtisodiy muvozanatni saqlab, kelgusi besh yilda iqtisodiy o‘sish sur’atini 6-7 foiz atrofida ta’minlashimiz zarur.

Bunda inflyatsiya darajasi 5-6 foiz, budjet taqchilligi 3 foiz doirasida bo‘lishiga erishish, yillik kreditlash hajmini 30 milliard dollarga olib chiqish asosiy vazifa bo‘ladi.

Ushbu davrda Hukumat kamida 100 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishga hamda yillik eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard dollarga olib chiqish, unda tayyor mahsulotlar ulushini 50 foizga yetkazishga erishishi lozim.

Xorijiy turistlar oqimini 5 yilda 15 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga olib chiqish uchun barcha imkoniyatlar borligini ta’kidlash zarur.

Shu bilan birga, norasmiy iqtisodiyotni “soyadan chiqarish”da raqamli texnologiyalarni tayanch vositaga aylantirish lozim. Xususan, kelgusi yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni yanada rag‘batlantirib, onlayn to‘lovlar ulushini 60 foizga yetkazish Hukumat va Markaziy bankning muhim vazifasi bo‘ladi.

Biz Jahon savdo tashkiloti bilan hamkorlik doirasida asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirdik va yaqin yillarda ushbu tashkilotga albatta a’zo bo‘lib kirishimiz kerak.

Ikkinchidan, joriy yilda Sayxunobod, Uychi, Zarbdor, G‘ijduvon tumanlarida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijalari asosida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” kompleks dasturini qabul qildik.

Endi, ko‘p qirrali yondashuvlar asosida, kambag‘al oilalarning a’zolariga sifatli ta’lim berish, ularni kasbga o‘qitish, ish bilan ta’minlash, sog‘lig‘ini yaxshilash, psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha ko‘mak berish paketlari individual bo‘ladi.

Ishni mahallabay tashkil qilib, 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilanadi.

Shu maqsadda kambag‘al oilalarga mansub bolalar maktablarda chet tili, kasb-hunar va IT bo‘yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so‘m ajratiladi. Ijtimoiy ahvoli og‘ir mingta mahallada infratuzilmani yaxshilash dasturi amalga oshiriladi. Bunga 2 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga jami 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanadi.

Hukumat 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e’tirof etilgan daraja – 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalarni ham samarali hal etishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiyot va aholi daromadlarini o‘stirishda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlariga alohida ahamiyat qaratish kerak.

Vazirlar Mahkamasining investitsiya kompleksi kelgusi yilda iqtisodiyotimiz uchun muhim bo‘lgan 300 dan ziyod yirik loyihani ishga tushirishi va to‘liq quvvatlar bilan ishlashini ta’minlashi zarur. Jumladan, “Yoshlik I” konida birinchi bosqichga, “Muruntov” konida esa keyingi bosqichlarga start beriladi. Shuningdek, Samarqand viloyatida yiliga 910 ming tonna mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaradigan kompleks, 600 ming tonna mahsulot beradigan metallurgiya korxonasi, Zarafshonda kaustik soda zavodi, Nukusda isitish tizimlari ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshiriladi.

Yurtimizda sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish imkoniyatlarini to‘liq ishga solish uchun barcha sharoitlar mavjud. Navoiyda mikro GESlarni barpo etish bo‘yicha barcha bosqichlar o‘z resurslarimiz asosida tashkil qilingani bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Shuning uchun sanoat kooperatsiyasi va mahalliylashtirish bo‘yicha katta dastur qabul qilamiz. Yangi tarkibdagi Hukumat yaqin besh yilda chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlari ulushini 32 foizga yetkazishni asosiy vazifa sifatida belgilab olishi zarur.

Yana bir muhim masala – iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ishonchli ta’minlash va energiya samaradorligini 2 karra oshirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Kelgusi yili mamlakatimizda 90 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, aholi va iqtisodiyot talablarini to‘liq ta’minlash lozim. Bunda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 25 gigavattga, ularning jami iste’moldagi ulushi 40 foizga yetkaziladi.

To‘rtinchidan, kelgusi besh yilda iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini 85 foizga yetkazish ham asosiy vazifalardan biridir.

Bu borada 2 mingta korxonada davlat ulushini, 5 mingdan ziyod ko‘chmas mulk obyektini sotish, 16 ta yirik majmua aksiyalarini IPO ga chiqarish talab etiladi. Hukumat 30 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni ta’minlashi kerak.

Vazirlar Mahkamasi 2025-yilda “tejamkorlik va barqarorlik” tamoyili asosida davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni tezlashtirib, ularning xarajatlarini 15-20 foizga qisqartirishi zarur. Bu borada 1 milliard dollarlik 18 ta davlat kompaniyasining ulushi berilgan Milliy investitsiya jamg‘armasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish lozim.

Beshinchidan, aholimiz soni ko‘payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Bu borada qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari, avvalo, meva-sabzavotchilikni intensiv rivojlantirish, yangi urug‘ navlarini yaratib, importni 50 foizga qisqartirish bo‘yicha dasturlarimiz bor.

Hukumat bu dasturlar ijrosini ta’minlab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, sohada eksport hajmi 10 milliard dollardan iborat bo‘lishi, suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yer maydonlarini 2 karra oshirish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etishi zarur.

Yangi yilda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun 5 trillion so‘m, kanallarni betonlash uchun 800 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Sog‘liqni saqlash, ta’lim va sportni rivojlantirish bo‘yicha katta dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirish – hamisha Hukumatning kun tartibida turishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalardir.

Birinchidan, o‘rtacha umr ko‘rish darajasini 78 yoshga yetkazish uchun birlamchi tibbiy xizmatlarning aholi uchun qulayligi va sifatini oshirish zarur. Xususan, 2025-yilda birlamchi bo‘g‘inda 3 million 700 ming nafar ayolni skrining tekshiruvidan o‘tkazish, bu jarayonni raqamlashtirish orqali saraton kasalligini erta aniqlash ko‘rsatkichini hozirgi 60 foizdan 85 foizga yetkazish mumkin.

Hukumat mahallalardagi 18 mingta tibbiyot brigadalarini o‘qitish, 884 ming nafar bemorni uy sharoitida reabilitatsiya bilan qamrab olish bo‘yicha yangi tizimni joriy etadi. Shu bilan birga, tug‘ruqxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga 100 million dollar yo‘naltiriladi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi va aholiga kafolatlangan paket asosida tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi kelgusi uch yilda barcha shahar, tuman va qishloqlarni qamrab olishi zarur. Shuningdek, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish kabi masalalar bo‘yicha Hukumat alohida dasturlar ishlab chiqishi lozim.

Ikkinchidan, ta’lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan siyosatimiz izchil davom ettiriladi.

Kelgusi yillarda bog‘chalarda qamrovni 80 foizga, oliygohlarda esa kamida 50 foizga yetkazish Hukumat uchun asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag‘lari hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog‘cha barpo etiladi. Shuningdek, 174 ta bog‘cha va 379 ta maktab ta’mirlanadi va yangitdan quriladi. Bu maqsadlar uchun budjetdan 4 trillion so‘m ajratiladi.

Tadbirkorlarga maktab qurish uchun 20 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit beriladi. Bunda kredit stavkasining 13,5 foizdan oshgan qismi budjetdan qoplab beriladi.

Muhtaram deputatlar!

Yuqorida aytilgan dolzarb vazifalarni bajarishda yangi Hukumatning Qonunchilik palatasi bilan yanada samarali hamkorlik olib borishi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, yangi tarkibdagi Vazirlar Mahkamasi oldida turgan ustuvor vazifalarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Avvalambor, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini odamlarga yanada yaqinlashtirish lozim.

Shu o‘rinda barcha rahbar kadrlar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lgan bosh talabni yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman. Ya’ni, **xalq davlat idoralariga emas, aksincha, davlat tashkilotlari xalqqa, uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilishi zarur.**

Joriy yilda qonunlar ijrosini doimiy baholab borish bo‘yicha yangi tizimni yo‘lga qo‘yganimizdan ko‘zlangan maqsad ham shundan iborat. Qonun qabul qilindimi, u albatta ishlashi kerak va odamlar hayotida sezilarli o‘zgarish bo‘lishi lozim. Qonunlar ijrosi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo‘mitasi va mas’ul ijro etuvchi organ bilan birgalikda o‘rganib borilishi kerak.

Yana bir muhim masala. Ijro etuvchi hokimiyat organlari qarorlar qabul qilishda qonuniylikni, ularning asoslangan bo‘lishini ta’minlashi lozim.

Keyingi vaqtda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik bilan maslahat qilishda qonunlarimizda belgilangan talablarga hamisha ham rioya etilmayapti. Adliya vazirligi bir oy muddatda bu masala bo‘yicha takliflarni Qonunchilik palatasining tegishli qo‘mitasi bilan birga muhokama qiladi va Hukumatga kiritadi.

Hukumatning qonunchilik tashabbusi bilan Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalari sifatini oshirish ham dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Davrning o‘tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlarni qabul qilish Oliy Majlisning eng muhim vazifasi, kerak bo‘lsa, uning obro‘sidir. Bu borada taniqli xitoy faylasufi Shan Yanning **“Yaxshi qonun – xalqqa hurmat ifodasidir”**, degan so‘zlarini eslash o‘rinli, deb o‘ylayman.

E’tiboringizni **yana bir masalaga** qaratmoqchiman. Hukumat, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari deputatlar tomonidan joylarda aniqlangan muammolarni hal etishda quyi palata qo‘mitalari bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari lozim. Lekin hozirgi vaqtda turli sohalarda nazoratni ta’minlovchi davlat inspeksiyalarining Qonunchilik palatasi qo‘mitalari bilan hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilmagan.

Shu bois ularning hisobotlarini qo‘mitalarda muhokama qilib borish bo‘yicha yangi, ta’sirchan tizimni joriy etsak, o‘ylaymanki, parlament nazorati samaradorligi yanada oshadi.

Qolaversa, bu ish samarali bo‘lishi uchun vazirlik va idoralarda rahbar o‘rinbosarlarini quyi palata qo‘mitalari bilan doimiy hamkorlik uchun mas’ul etib biriktirsak, nima deysizlar?

Albatta, bu birinchi rahbarlar zimmasidan mas’uliyatni soqit qilmaydi, palatalar bilan hamkorlik uchun so‘rov, avvalambor, ulardan bo‘ladi.

Umuman olganda, parlament va Hukumat o‘rtasidagi munosabat qarama-qarshilikka emas, konstruktiv muloqotga asoslanishi zarurligini yana bir bor eslatib o‘tmoqchiman.

Shu bilan birga, **parlament nazorati – bu, avvalo, “xalq nazorati, xalq so‘rovi”** ekanini unutmaslik lozim. Afsuski, parlament so‘rovi, deputat so‘roviga yuzaki yondashib, unga yengil-elpi munosabatda bo‘lish holatlari ham uchrab turibdi.

Bu borada barcha rahbarlar mas’uliyat va javobgarlikni to‘liq his etishi lozim. Ushbu masalaga bepisand qarashga hech kimning haqqi yo‘q. Parlament va deputat so‘rovlariga javob aniq va mazmunli bo‘lishi, so‘rov kimga yo‘llangan bo‘lsa, shaxsan shu rahbar tomonidan javob berilishi shart. So‘rovlarni yuborish va qabul qilish onlayn tizimga o‘tayotgani bu boradagi muammolarga yechim bo‘lishiga ishonaman.

Qadrli do‘stlar!

Mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish uchun **samarali tashqi siyosat olib borish, do‘st va hamkorlarimiz doirasini kengaytirish, yaqin qo‘shnilarimiz bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish** o‘ta muhim vazifadir.

Shu maqsadda, avvalo, Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilish zarur, deb hisoblayman. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash tashqi siyosatimizda ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Kelgusi yili yurtimizda bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo beshligi” uchrashuvi, hech shubhasiz, shu yo‘ldagi yana bir ulkan amaliy qadam bo‘ladi. Ushbu anjumanda erkin savdo zonasini, biznes va investitsiyaviy faollik, ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi markazini yaratish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilishi ham shunday deb aytishga asos beradi.

Hozirgi vaqtda fuqarolarimiz Qirg‘izistonga ID karta bilan bemalol borib-kelmoqdalar. Endi shunday tartibni Qozog‘iston va Tojikiston bilan ham joriy etamiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda boshqa yetakchi hamkor davlatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, moliya institutlari bilan samarali va tizimli aloqalarni yanada rivojlantirish doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib, bugungi yig‘ilishda ishtirok etayotgan diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillarini samimiy qutlaymiz.

Islohotlarimizni chin dildan qo‘llab-quvvatlab kelayotganingiz, hududlarimizga chiqib, yangilanish va o‘zgarishlar bilan yaqindan tanishib, o‘z davlatlaringizdagi tajribalarni biz bilan o‘rtoqlashayotganingiz uchun cizlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun butun dunyo nihoyatda notinch va tahlikali vaziyatda yashayotganini barchamiz ko‘rib, his qilib turibmiz. Mana shunday murakkab davrda **davlatimizning mustaqilligi va suverenitetini, xalqimizning tinch va erkin hayotini eng bebaho boylik sifatida asrash va himoya qilish** eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi.

Hech qachon unutmasligimiz zarur: mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimiz mudofaasi nafaqat Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish idoralari, balki O‘zbekistonni o‘zi uchun ona Vatan deb biladigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha insonlarning muqaddas burchidir. Buning uchun yagona Vatan, ko‘p millatli yagona ahil oila tuyg‘usi har birimizning qalbimiz, yuragimizdan chuqur joy olishi lozim.

Dunyoda turli xatar va tahdidlar avj olib borayotgan hozirgi sharoitda Qurolli Kuchlarimizning jangovar va ma’naviy salohiyatini oshirishga e’tiborni yanada kuchaytiramiz.

Yoshlarimiz ongu tafakkurida milliy g‘urur bilan birga umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarur. Farzandlarimizni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ularni ilm-fan, IT texnologiyalar, ma’naviyat, san’at va adabiyot, sport bilan oshno etish uchun hech narsani ayamasdan, bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Bugun faqat mana shunday ilg‘or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo‘lida birlashgan xalqqa ega bo‘lgan davlatgina o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashga erisha oladi.

Shu munosabat bilan yaqinda Navoiy viloyatida aytgan fikrimni takrorlashni zarur deb bilaman.

Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri – iqtisodiyot, biri – ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq – iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi.

Ayni vaqtda biz jamiyatimizdagi ochiqlik va erkinlik muhitini, millatlar va dinlar o‘rtasidagi ahillik va hamjihatlikni mustahkamlash, so‘z va matbuot erkinligi, vijdon erkinligini ta’minlash bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettiramiz.

Hurmatli deputat va senatorlar, yangi Hukumat, hokim va vazirlarimiz mana shu vazifalarning mohiyatini to‘g‘ri anglab, muhtaram faxriylarimiz, mahalla, xotin-qizlar, yoshlar va kasaba uyushmalari tashkilotlari, ilmiy va ijodiy ziyolilarimiz bilan bir yoqadan bosh chiqarib, faol ish olib boradilar, deb ishonaman.

Aziz yurtdoshlar!

Ko‘rib turganingizdek, oldimizda g‘oyat ulkan marralar turibdi. Yangi O‘zbekistonimiz yangi parlamenti bilan birga o‘z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo‘ymoqda.

Albatta, bu yangi davrda endi eskicha ishlab bo‘lmaydi. Shu bois, Hukumat o‘z faoliyatini mutlaqo yangicha asosda tashkil etishi kerak. Buning uchun unga kuchli rahbar, ya’ni, Bosh vazir zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Men bu masala haqida atroflicha o‘ylab, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga Abdulla Nigmatovich Aripov nomzodini ko‘rsatishga qaror qildim.

Bu rahbarni barchangiz yaxshi taniysiz. Abdulla Aripov katta tashkilotchilik salohiyatiga ega bo‘lgan, ijro hokimiyati tizimida boy bilim va tajriba orttirgan, mas’uliyatni doimo chuqur his etadigan rahbardir. U Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur tushunadi, balki ularni amalga oshirishda chinakam jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan rahbarlarimizdan biri, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

U kishi bilan ancha yillar davomida birga ishlab, shunga amin bo‘ldimki, davlat miqyosidagi yirik dastur va loyihalarni amalga oshirishda doimo talabchanlik va jonkuyarlik bilan yondashadi. Abdulla Aripov mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan cho‘chimasligi, aholi bilan muloqot uchun har doim ochiqligi, mehnatkashligi va kamtarinligi bilan xalqimiz o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan.

Ushbu nomzod bugun Hukumat oldiga qo‘yilgan, ko‘lami va miqyosi benihoya katta bo‘lgan muhim vazifalarni hal etishda Vazirlar Mahkamasi faoliyatini samarali tashkil qiladi, Hukumat a’zolari, vazirlik va idoralar rahbarlarini birlashtirib, yagona maqsad sari safarbar eta oladi, deb ishonaman.

Hozirgi murakkab davrda bu juda muhim. Shu bois, bugun ana shu nomzodni sizlarning muhokamangizga taqdim etmoqdaman.

Siz, hurmatli deputatlar va fraksiyalar rahbarlaridan ushbu nomzod hamda bo‘lg‘usi Hukumatning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ko‘rib chiqib, qo‘llab-quvvatlashingizni so‘rayman.

* * *

Muhtaram vatandoshlar!

Endi, an’anamizga muvofiq, kelgusi yilda e’tiborimiz markazida bo‘ladigan eng ustuvor yo‘nalish bo‘yicha maslahatlashib olsak.

Bugun nafaqat biz, balki dunyodagi ko‘plab mamlakatlar iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda.

Biz bu masalaning oqibatlarini oldindan ko‘rib, mazkur yo‘nalishda katta ishlarni olib boryapmiz. Bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi hozirgi kunga kelib chinakam xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur qator hududlarda, jumladan, Orolbo‘yidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishdik. Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti tashkil etildi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo‘ldik. Ayni vaqtda “yashil” energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Biz yangi yilga nom berish masalasida el-yurtimizning fikr-mulohazalari, xohish-istaklarini atroflicha o‘rgandik. Bildirilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda, boshlagan ishlarimizni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida men 2025-yilni yurtimizda **“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili** deb e’lon qilishni taklif etaman.

Biz tabiat haqida so‘z yuritganda, ko‘pincha “ona tabiat” degan iborani ishlatamiz. O‘ylaymanki, bu shunchaki chiroyli, shoirona so‘z emas, balki uning zamirida chuqur hayotiy haqiqat bor.

Biz mo‘tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehtirom qilsak, o‘zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo‘lishimiz zarur.

Zero, **tabiatni asrash – insonni asrash demakdir.**

Albatta, yangi saylangan Bosh vazirimiz rahbarligidagi hukumat yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqadi. Ushbu dasturda “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Bugun siz, azizlar bilan, xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz.

Hech shubhasiz, bu davrning qanday bo‘lishi birgalikda o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirishimizga bog‘liq.

Ishonchim komil, bu – **Yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr** bo‘ladi.

Bu davr parlament va Hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha ibratli an’analar shakllanadigan va tarixga muhrlanadigan davr bo‘ladi.

Kelajak avlodlar albatta faxr bilan tilga oladigan ana shunday buyuk tarix va kelajakni yaratish bizning o‘z qo‘limizda.

Keyingi uch kun mobaynida siz, azizlar bilan, keng jamoatchiligimiz bilan mamlakatimizning bugungi va ertangi taraqqiyoti haqida atroflicha fikr almashdik. 2024 yilda – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da bajargan ishlarimizga yakun yasadik.

Parlamentimizda – “Xalq uyi”da deputatlar bilan muhokama qilingan barcha tashabbus va rejalarni, ularda ilgari surilgan g‘oya, maqsad va vazifalarni, mohiyat e’tiboriga ko‘ra, **Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnoma** desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Siz, hurmatli deputatlar va Hukumatimiz a’zolari, kattayu kichik barcha rahbarlar mana shu Murojaatnomada belgilab berilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda fidoyilik va namuna ko‘rsatib mehnat qilasizlar, deb ishonaman.

Mana shunday sharafli maqsad yo‘lida barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, ulkan yutuq va omadlar tilayman.

Global iqlim o‘zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda keyingi 50-60 yilda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Taxminlarga ko‘ra, harorat 20 darajaga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 40 daraja isiganda esa 78 foizga kamayadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. O‘zbekistonda 2015-yilgacha bo‘lgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 milliard metr kubdan ortiqni tashkil qilgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 7 milliard kub metrni, 2050-yilga borib esa 15 milliard kub metrni tashkil qilishi mumkin. Buning oqibatida O‘zbekiston dunyodagi suv tanqis bo‘lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli mavjud. Qor va yomg‘irlarning kam bo‘layotgani, muzliklar va yirik daryolar havzalarida, kichik daryo va soylarda suv miqdorining kamayib borayotgani, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli respublikada o‘rtacha yillik 51-53 milliard metr kub suv resurslaridan foydalanilmoqda.

Kanallarni betonlashtirish suvni 30 foizga tejaydi



Shu bois suvni tejash va oqilona foydalanish bugun har doimgidan ko‘ra dolzarb masalaga aylangan. Xo‘sh, bu borada viloyatda qanday ishlar amalga oshirilmoqda, ehtiyojimiz va iste’molimizdagi farq qanchalik o‘syapti, resursni tejash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari Mahmud Turniyazov bilan ish va boshqa masalalar yuzasidan suhbatlashdik.

– Viloyatimizda ham suvdan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan barqaror ta’minlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifamizga aylangan, - deydi Mahmud Turniyazov. - Suv resurslarini boshqarishni raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini joriy etish, sohaga oliy ma’lumotli yosh kadrlarni jalb etish kabi bir qator indikator ko‘rsatkichlarni tizimli tashkil etish yuzasidan vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda viloyatda 14 ta suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi tashkil etilgan bo‘lib, ular 346,9 ming gektar maydonga ega 8726 iste’molchiga xizmat ko‘rsatadi.

Suvdan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan barqaror ta’minlash bo‘yicha aprel-sentabr oylarida sug‘orish ishlariga 2 milliard 55 million metr kub yoki jami limitga nisbatan 90 foiz suv yetkazib berildi.

Viloyatda suvdan foydalanish koeffitsiyenti 0,90 ni tashkil etib, 1 gektar maydonga sarflangan suv miqdori o‘rtacha 1200 metr kubni tashkil etadi. Shu bois 2024-yilda suvni tejash, yerlarni lazer tekislash, irrigatsiya, raqamlashtirish, ekinlarni joylashtirishda suv kam talab qiladigan ekinlar ulushini ko‘paytirish hamda ekin maydonlarida qo‘shimcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hisobidan 400 million metr kub suv iqtisod qilinishi rejalashtirilgan.

Hozirgacha mavjud resursdan oqilona foydalanishning yagona yo‘li suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Bu borada joriy yilda viloyatimizda 10948 gektarda tomchilatib, (4438 gektar g‘o‘za maydoni) 3033 gektarda yomg‘irlatib, 3235 gektarda pulsar sug‘orish, 8356 gektarda egiluvchan quvur va plyonka to‘shab sug‘orish tizimlari joriy etilgan 30359 gektar maydonni lazer uskunasi yordamida tekislash ishlari amalga oshirildi.

Suv resurslarini boshqarishni raqamlashtirish yo‘nalishida joriy yilda jami 145 ta suv xo‘jaligi obyektlarini raqamlashtirish rejalashtirilgandi. Hozirda 549 ta suv xo‘jaligi obyektini raqamlashtirish bo‘yicha pudratchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzildi, 419 ta “Aqlli suv” qurilmasi, 175 ta “Dayver” qurilmasi to‘liq o‘rnatilib bo‘lindi.

- Sohaga davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini joriy etish, qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish borasida qanday choralar ko‘rilyapti?

- Davlat rahbari va hukumatning tegishli hujjatlari bilan 2024-yilda suv xo‘jaligi ob’ektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berish ishlari tashkil etilib, xususiy sheriklar aniqlangan va ro‘yxati to‘liq shakllantirilib, loyihalar ishlab chiqilgan. Jumladan, joriy yilda 35 ta ob’ektni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida boshqaruvga berish belgilangan. Hozirda bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligining xulosasini olish ishlari amalga oshirilmoqda.

2023-yilda 15 ta nasos stansiyasi davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida boshqaruvga berilgan bo‘lsa-da, qo‘shimcha kelishuv bitimlarini imzolab, elektr energiyasi iste’molini 30 foizga kamaytirish choralari ko‘rilmoqda. Joriy yilda yuqorida ko‘rsatilgan nasos stansiyalarni modernizatsiya qilish uchun xususiy sheriklar tomonidan 2,5 milliard so‘m investitsiya mablag‘i kiritish vazifasi qo‘yilgan va hozirgacha 1,2 milliard so‘m sarmoya o‘zlashtirildi.

- Viloyatda nechta suv xo‘jaligi obyekti va ular tasarrufida foydalanishda bo‘lgan qancha ekin maydoni bor? Avvalgi uchrashuvlarimizda obyektlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda birmuncha qiyinchiliklar borligi aytilgandi.

- Boshqarma tasarrufidagi tashkilotlar hisobida 1101 ta suv xo‘jaligi ob’ekti mavjud. Shundan 192 ta kanal, 333 ta kollektor, 93 ta nasos stansiya, 453 ta tik sug‘orish qudug‘i va 8 ta sel-suv omborlari hamda suv omborlarining 3 ta kirish-chiqish kanallari, 333 ta kollektor to‘liq davlat ro‘yxatidan o‘tkazib bo‘lindi.

Hozirgacha viloyatdagi 14 ming 286 gektar suv fondi yer maydonidan 6 ming 971 gektar (48,8 foiz) yer maydoni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Mavjud suv fondi yerlarini xatlovdan o‘tkazish ishlari yer tanlash materiallari shartnoma asosida Kadastr agentligi Aerogeodeziya markazi viloyat hududlararo bo‘linmasi tomonidan tayyorlandi.

Viloyat bo‘yicha tabiiy ko‘llar, daryolar, soylar va ichki irrigatsiya va melioratsiya obyektlari foydalanishidagi suv fondi yer maydonlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish hamda kadastr pasportlari shakllantirilib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun respublika budjetidan Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning tizimidagi tashkilotlariga 12351 million so‘m mablag‘ ajratilgan. Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning tizimidagi tashkilotlar Agrogeodeziya markazi DM o‘rtasida qiymati jami 11 110,4 million so‘mlik shartnoma tuzilgan.

Shuningdek, daryolar, soylarga Aerogeodeziya bilan shartnoma qilinib, xatlov ishlari yakunlandi. Bu borada viloyat hokimining qarori ham qabul qilindi va 7 ming 315 gektar maydonni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha arizalar berilgan.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-noyabr kuni o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida bu yil mamlakatimizdagi suv omborlarida o‘tgan yilgidan ko‘p suv yig‘ilgani, lekin xotirjamlikka berilmaslikni qayd etdi. Dunyoda bir vaqtlar cho‘l bo‘lgan hududlarda yog‘ingarchilik ko‘payib, boshqa joylarda qurg‘oqchilik kengayib borayotgan sharoitda mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kanallarni betonlash qanchalar ustuvor vazifa ekanligi yana bir bor isbotlandi. Birgina 550 kilometr kanal va ariqlar betonlangani hisobiga respublikada 200 ming gektarda suv yaxshilandi, yiliga 450 million kub metr suv iqtisod bo‘lyapti.

Suv boshqaruvi isloh qilinib, tuman darajasida suvni hisobga olish tizimi shakllandi, fermerlar suvni hisob-kitob qilishni o‘rgandi. 2024-yil kuz va 2025-yil bahorda, ya’ni sug‘orish mavsumi bo‘lmagan pallada kanallarni tozalash, inshoot va postlarni ta’mirlash ishlari reja-jadvallari ishlab chiqildi.

Tumanlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi balansidagi 420 kilometr ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish bo‘yicha reja ishlab chiqilgan va hozirgacha 50 kilometrga yaqin tarmoq betonlashtirildi. Shuningdek, klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi 2100 kilometr xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish rejalashtirilib, hozirgacha 650 kilometrga yaqin tarmoq betonlashtirildi.

Suv dalagacha to‘liq yetib borishida ariq-kanallardagi yo‘qotishning oldini olish muhim hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida joriy yilda viloyatdagi 26,2 kilometr uzunlikdagi 7 ta kanalni betonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu ishlar yakuni bilan yo‘qotilish hajmi 30 foizga qisqaradi.

– Elektr energiyasi tannarxi oshishi suv yetkazib berish xarajatlariga qanchalik ta’sir ko‘rsatdi?

- To‘g‘ri, elektr energiyasining narxi oshishi qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Buning uchun viloyatdagi suv xo‘jaligi ob’ektlarida muqobil energiyani joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Hozirgacha 18 ta bino-inshootda quyosh panellari o‘rnatildi va bu davom etmoqda. Bu obyektlarni to‘liq elektr energiya bilan ta’minlay olmasa-da, xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV suhbatlashdi.

BOLALAR TARBIYASI BUZILIB KETDI...

To‘xtang, o‘zi TARBIYA beryapmizmi?!

Fuqarolik huquqi sohasida bola huquqlarini ta’minlash uchun keng qamrovli qonunchilik bazasi yaratilgan. Ushbu qonunchilik nafaqat bolalarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, balki ularning jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Albatta, bu haqda fikr yuritganda, dastavval Konstitutsiyamizga to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Zotan, Asosiy Qonunimizning 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”, deb belgilangan.

Shuningdek, 14-bobiga ko‘ra, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Anglashiladiki, ota-ona bo‘lish kishiga majburiyat yuklaydi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, uni qanchalik uddalayapmiz, huquqlarimizni talab qilishni bilamiz-u bolalarimiz huquqini buzib qo‘ymayapmizmi?

MAJBURIYATINGIZNI UNUTMAYAPSIZMI?

Ommatan shunday: bir kishi ilgari bilmagan va ko‘rmagan biron bir zamonaviy jihoz sotib olsa, albatta, ishlab chiqaruvchi tayyorlagan katalog (foydalanish yo‘riqnomasi)ni o‘qish yoki bu jihozni ishlatib ko‘rgan kishilardan so‘rab-surishtirib, undan foydalanishga harakat qiladi. Ya’ni, bu orqali yangi buyumni ishlatishda jiddiy xatoga yo‘l qo‘yib, oqibatda katta mablag‘ga kuyib qolmaslikka harakat qiladi.

Lekin aksar hollarda bola har qanday jihozdan ko‘ra murakkabroq ekanligi unutiladi. Unga to‘g‘ri tarbiya berish puxta bilim, tajriba va mahorat talab qilishi e’tibordan chetda qoldiriladi. Vaholanki, bu uning huquqi emas, Bosh qomusda belgilangan majburiyati.

O‘zingiz ayting, farzand tarbiyasi bo‘yicha bitta kitobcha mutolaa qilish yoki mutaxassisdan maslahat so‘rash xayolingizga kelganmi? Butun jamiyatga xos bu illat – bola tarbiyasiga loqaydlikning achchiq samarasini ko‘rib turibmiz-ku?! Ko‘plab yigit va qizlarning qing‘ir yo‘llarga kirib ketishi, qanchadan-qancha yoshlarning o‘qish hamda amaliy hayotdagi muvaffaqiyatsizligi kelajak egalari tarbiyasiga loqaydlikning natijasi emasmi?

Gohida mutlaqo bo‘ysunmay qo‘ygan o‘g‘illari yoki qizlarini tartibga chaqirib qo‘yishni so‘ragan ota-onalarga duch kelamiz. Lekin bu masala farzandlar bilan emas, ota-onalar bilan hal bo‘ladi, chunki oqibat emas, sababni isloh qilish kerak...

VOQELIK OG‘RIQLI...

Hozirgi davrda odamlarda o‘z qobig‘iga o‘ralish, jamoaviy yig‘in va to‘y-hashamlar o‘rniga shaxsiy ko‘ngilxushlikka moyillik kuzatilmoqda. Mutaxassislarning fikricha, borgan sari ko‘proq uzlat hayoti ommalashib bormoqda (ko‘pchilik ota-onalar farzandlari hayotiga boshqalarning aralashuvini qabul qilmasligi ham shundandir?!)

Demak, endi ota-onalar farzand tarbiyasi borasida yaqin vaqtlargacha mavjud bo‘lgan jamoaviy hamkorlikni kutmasdan, balki tarbiya mas’uliyatini faqat o‘z zimmalariga olishlariga to‘g‘ri kelmoqda. Ilmiy tilda bu holat endi hayotimizdagi qusur va kamchiliklarni isloh qilish jamiyatdan oila ichkarisiga yo‘naltirilmaydi, aksincha, oiladan jamiyatga yo‘naladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, oilani himoya qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlarimiz jamiyatni tanazzulga yuz tutishdan hamda inqirozga uchrashdan saqlashda katta hissa bo‘ladi.

QARZ BO‘LIB QOLMANG!

Ajdodlardan merosga ko‘ra, tarbiya haftada yetti kun, kunda yigirma to‘rt soat mehnat talab qiladi. Bu o‘rinda ikki narsani doim yodda saqlash kerak:

Birinchidan, farzand jamiyatda bizning yuzimiz, aksimizdir. Uning qanday voyaga yetishi o‘tgan umrimizga berilgan baho. Albatta, uning ibratli kishi bo‘lishi qalbimizga g‘urur berishi, hayotimizga fayz bag‘ishlashi shubhasiz.

Yana shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bugun farzandlarimizga qilinayotgan e’tibor, ota-onalarimizning bizga bergan tarbiyasi samarasi. Biz yaratgan oilaviy muhit farzandlarimiz orqali nabiralarimizga nisbatan tatiq qilinadi. Demak, tarbiya oldi-berdi, qarz masalasi ekan.

XULOSA

So‘zimizni farzand tarbiyasi Konstitutsiyada belgilangan majburiyat ekanligidan boshlaganimiz bejiz emas. Mantiqqa ko‘ra, majburiyat bajarilmasligi javobgarlikka sabab bo‘ladi. Albatta, bu haqda to‘xtalmoqchi emasmiz. Zero, masalani bungacha olib bormasligingizga ishonamiz.

Furqat ANOROV,
fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat sudi sudyasi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

“BULUNG‘UR DEHQON BOZORI” MCHJ TA’SISCHILARI DIQQATIGA!

Bulung‘ur tumanida joylashgan “Bulung‘ur dehqon bozori” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2024-yil 28-noyabr kuni soat 11:00 da jamiyat ma’muriy binosida o‘tkaziladi. Ushbu hisobot yig‘ilishiga barcha ta’sischilar va qiziquvchi tashkilotlar rahbarlari taklif etiladi.

KUN TARTIBIDA:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2024-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-980-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi “Ma’suliyati cheklangan hamda qo‘shimcha ma’suliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasiga qo‘shimchalar kiritilgan. Shunga ko‘ra, jamiyatning ustavidagi davlat ulushi ommaviy sotilganda, jamiyatning qolgan ishtirokchilari yoki jamiyatning roziligini olish talabini bekor qilish bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritish masalasi;

2. Jamiyatning 2025-yilga mo‘ljallangan “Biznes-rejasi”ni tasdiqlash;

3. Jamiyatda 9-oylik rejaning bajarilishi va xarajatlarini ko‘rib chiqish.

Manzil: Bulung‘ur tumani “Mehrjon” MFY, Sohibkor ko‘chasi, 26-uy.

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Tagiyev Sattor Kasimovichga (2024-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Panjob ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Ismatov Abdullaga (2024-yil 19-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Aminov Ixtiyorga (1999-yil 9-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.

***

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xalilov Turdikulga (2024-yil 17-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.



Yonimizdagi SOXTA MEHRIBONLAR

“Odamlarda oqibat qolmadi”, “Falonchi bunaqa ekan”,“Uyni, mashinani o‘zining puliga olmagani aniq”, “Sen haqingda shunaqa dedi”...

Oramizda o‘zgalarni yomonlab, o‘zining “qimmatli” maslahati bilan jar yoqasiga yetaklaydigan, g‘iybatchi, fitnachi, o‘zidan boshqani ko‘rolmaydigan odamlar ko‘payib ketmoqda.

Bu haqida yozishimga yaqinda o‘zim guvohi bo‘lgan voqea sabab bo‘ldi. Yaqinda bir kishi tahririyatimizga murojaat bilan keldi.

- Uka, yon qo‘shnim bilan uzoq yildan buyon bitta joyda turamiz, - deb gap boshladi u. - O‘zi bor-yo‘g‘i taksi haydaydi. Lekin yaqinda dang‘illama to‘y qildi, yangi mashina, uy sotib oldi. Rosti, qo‘shnim buncha narsaga birdaniga erishganiga ishonolmayapman. Menimcha, u qandaydir ishga aralashgan yoki boyroq odamning qimmatroq narsasini o‘margan. Bo‘lmasa, taksichilik qilib birdaniga boyib ketish qiyin. Shuni bir ijtimoiy tarmoqqa chiqarsak, tegishli tashkilotlar o‘rganarmidi deyman-da. Faqat bu haqda men shikoyat qilganimni hech kim bilmasin. Mahallada gap-so‘z ko‘payadi.

- Aka, qo‘shningiz bilan kelishmay qolganmisiz, adovatingiz bormi?

- Yo‘q.

- Sizga og‘irligi tushyaptimi yoki ziyoni tegyaptimi?

- Yo‘q.

- Gumon qilyapsiz, biror no-jo‘ya ishidan aniq xabar topdingizmi?

- Yo‘q.

- Unda nega qo‘shningizdan shikoyat qilyapsiz?

- Har ehtimolga qarshi tekshirish kerak deyapman, uka.

Murojaatchining gap-so‘zi, xatti-harakatidan maqsadini tushundim. Qo‘shnisini ko‘rolmayapti.

– Biz murojaatni murojaatchining ism-familiyasi bilan chiqaramiz, - dedim. Bordi-yu, biror tashkilot yoki shaxs haqida yolg‘on ma’lumot bersangiz yoki tuhmat qilsangiz, qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilasiz. Jinoyat, huquqbuzarlik yoki qonunbuzilish holatlari haqida huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilishingiz mumkin.

Murojaatchi indamay xonamdan chiqib ketdi.

Go‘yoki odamlar salbiy tomonga o‘zgarib ketyapti-yu, bu toifadagilarning o‘zi yaxshiligicha qolgan. Faqat ular bilag‘on, to‘g‘ri yo‘lda yuradi, boshqalar esa «egri», hali uning «darajasi»-ga yetmagan. Bunday insonlarni jamiyatda, jumladan, har qanday jamoada, do‘stlar, hamkasblar va hatto yaqinlar orasida ham uchratish mumkin. Ularni yonimizdagi soxta mehribonlar deb qo‘ya qoldim.

Oramizda yana bir toifa odamlar borki, mansab yoki amal tegdimi, darrov burni osmonda bo‘ladi. Albatta, bu tabiiy hol, amal insonni o‘zgartiradi deyishingiz mumkin. Biroq bu odamlarning ustidan kulish, boshqalarni mensimaslik yoki ulardan zo‘r ekanligini ko‘rsatish kerak, degani emas. Bu shuhratparastlik ham deyiladi. Har bir insonning o‘z yo‘li, qarashlari, xarakteri bo‘ladi. Dinimizda musulmon odam boshqa bir musulmondan o‘zini ustun qo‘yib, mensimasligi, masxara qilishi, uni ayirishi, ayniqsa, kamchiligini yuziga solishi qattiq qoralangan.

Bir to‘yda uzoq yillik tanishimni uchratib qoldim. Yuqorirooq tashkilotda ish boshlabdi-yu, odamgarchilikni unutibdi. Boshqalarni oyoq uchida ko‘rsatyapti, suhbatdoshlari ustidan kulib, nuqul kamsitgani-kamsitgan. Ha, yana o‘ziga o‘xshagan bir-ikkita kekkaygan oshnasini yoniga olib, g‘iybat qilishini, yon-atrofdagilarga o‘zini "aqlli" ko‘rsatishini, qilgan ishlari bilan maqtanishini aytmasa ham bo‘ladi. O‘ziga bino qo‘ygan o‘sha «aqlli»ning xatti-harakati, o‘zini tutishi to‘yda men qatori ko‘pchilikning kayfiyatini buzdi. «Kim bo‘lsa ham, qayerda ishlasa ham, avvalo, hurmatini bilsin, boshqalarni ham hurmat qilishni o‘rgansin. Zo‘r bo‘lsa, o‘ziga...», deya qizishib, jag‘iga musht tushirmoqchi bo‘lganlar ham topildi. Ammo bunaqalarga teng bo‘lishning o‘zi ahmoqlik.

Insonning mol-dunyo, obro‘ va mansabga ega bo‘lgani yaxshi, albatta. Ammo shunga yarasha tarbiyasi va xulqi ham go‘zal bo‘lishi kerak. Bu xususda algebra fanining asoschisi, buyuk bobomiz Al-Xorazmiyning ajoyib tenglamasi bor. Agar inson yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, u 1 ga teng. Agar inson husn sohibi bo‘lsa, birning yoniga nolni qo‘sh = 10 bo‘ladi. Agar inson boy bo‘lsa, yana bir nolni qo‘sh = 100 bo‘ladi. Agar nasl-nasabli bo‘lsa, yana bir nolni qo‘sh = 1000 bo‘ladi. Agar 1 raqami, ya’ni xulqi yo‘q bo‘lsa, insonning qiymati yo‘qqa chiqib, nollarning o‘zi qoladi = 000.

Xulosa shuki, «1»imizni yo‘qotib qo‘ymaylik, yo‘qsa, hamma qilganlarimiz «0» ga teng bo‘lib, jamiyatdagi o‘rnimiz ham yo‘qoladi.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

Boylikdan qadrli tuyg‘ular ham bor

Mehr ko‘zda deyishadi. Qarindosh-urug‘, yoru birodarlar bilan diydorlashib turish ko‘ngil g‘uborini yozadi, kishilar o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlaydi. O‘tkinchi dunyoda yashayapmiz. Jon omonat, umr g‘animat. Ammo nazarimda insoniyatda samimiyat, mehribonlik singari muqaddas tuyg‘ular kamyoblashib borayotganday.



Esimda, ellik-oltmish yillar muqaddam odamlar mashinasi bo‘lmasa ham qarindoshlarini yo‘qlab turishardi. Bir-birining diydoriga to‘yib, ruhiy taskin topishardi. Hozir qo‘shni yoki ikki-uch uy naridagi aka-uka, tog‘a-jiyan, amma-xolalar holidan xabar olishga erinamiz. Oshib borsa, qo‘ng‘iroq qilib, hol-ahvol so‘ragan bo‘lamiz. Vaholanki, eshigi yonidan har kuni mashinada g‘izillab o‘tib-qaytib turamiz. Hatto, ayrim aka-ukalarning bir mahallada yashab, haftalab ota-ona, jigarlaridan xabar olmayotganiga nima deysiz?

...Qodir aka bilan kasalxonada bir palatada yotib davolanishga to‘g‘ri keldi. O‘g‘li Sobirjon otasi tuzalguncha boshida parvona bo‘ldi. Yeyish-ichish, dori-darmondan zoriqqani yo‘q. Meni ajablantirgani, yigirma kun davomida oila a’zolaridan boshqa bironta qarindosh-urug‘i yo‘qlab kelmadi. Hech kimi bo‘lmasa kerak-da degan xayolga bordim. Inson xasta bo‘lganda, ayniqsa, mehrga tashna bo‘larkan. Har kuni eshikka ko‘z tikib, o‘g‘li Sobirjondan shikasta ovozda “hech kim kelmadimi?”, deb so‘rab qo‘yadi. Keyinchalik bilsam, ikki ukasi bor ekan, maktabda dars berishar, jiyanlari tumanda nufuzli lavozimlarda ishlasharkan. To‘g‘ri, qay biridir bir-ikki marta qo‘ng‘iroq qilib, ahvol so‘ragan bo‘ldi. Axir qo‘ng‘iroq mehr tashnaligi, qalb sog‘inchi, diydor o‘rnini bosarmidi?

Shiddatli kechayotgan zamonda yashayapmiz. Ostimizda mashina, qo‘limizda tezkor aloqa vositalari bo‘lsa-da, negadir hech narsaga ulgurmaymiz. Ro‘zg‘orimiz obod, dasturxonimiz to‘kin, ammo fikru xayolimiz mol-dunyoni ko‘paytirish bilan band - ko‘nglimiz to‘lsa-da, ko‘zimiz to‘ymaydi, nafsimiz qonmaydi. Ota-onamiz dunyodan o‘tgan bo‘lsa, qabrini ziyorat qilib turish, hayot bo‘lsa, duosini olish, jigarlardan hol-ahvol so‘rab, ko‘nglini ko‘tarishga vaqtimiz yo‘q.

Inson dunyoda faqat boylik orttirish uchun yashamaydi. Odamgarchilik, mehr-oqibat, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, hayotda shodlik-quvonchni, g‘amu tashvishni baham ko‘rish singari olijanob tuyg‘ular ham bor. Qavm-qarindoshlarni yo‘qlab turish, yaxshi-yomon kunlarida dalda bo‘lish yuksak fazilat. Bir-birimizdan mehrimizni darig‘ tutmaylik!

Tog‘aymurod SHOMURODOV.

Har gal o‘quv yili boshlanishi bilan Samarqand shahri ko‘chalarida transport vositalari soni ortib, tirbandliklar ko‘payadi. Ko‘pchilik bu muammoning sababi talabalar, deydi. Go‘yoki ular o‘qishga o‘z transportida kelganligi uchun aybdordek. Aslida ham shundaymi?

Talabalar mashina haydamasinmi?

To‘g‘ri, talabalarning jamoat transportida harakatlanishi vaziyatni bir muncha yengillashtirishi mumkin edi. Jumladan, tumanlardan kirib keluvchi, yo‘l chetlarida qoldiriladigan transportlar kamayadi. Lekin bugun talabalar shaharga faqat dars uchun kelmasligini, balki undan keyingi vaqtida ishlashini ham hisobga olish kerak. Shartnoma pullarini o‘zi, mehnati ortidan to‘layotganlar qancha. Qolaversa, jamoat transporti ham talab darajasida ishlaydi deya olmaymiz. Ularning soni kam va aniq vaqt oralig‘ida harakatlanmaydi.

Talabalarni transportsiz qoldirish ko‘proq yo‘nalishsiz taksi haydovchilari uchun manfaatli. Sababi jamoat transportidan foydalana olmaydigan talaba istaydimi-yo‘qmi taksiga murojaat qiladi. Ayni holat shaharda taksistlar sonining ortishi va yana tirbandliklar ko‘payishiga olib kelmaydimi? Shusiz ham Samarqand shahrida taksi haydovchilari uchun yagona xizmat haqi belgilanmagan. Ular o‘zlari istagan narxlarda, tabiiyki qimmatga xizmat ko‘rsatadi.

Yana bir gap, joriy o‘quv yilida Samarqand shahridagi aksariyat oliy ta’lim muassasalaridagi avtoturargohlarga kirish cheklandi. Hozir ulardan faqat rahbariyat va pedagoglar foydalanishi mumkin. Bu yetmaganidek, ko‘chaning muassasalar oldidan o‘tuvchi qismlariga ham to‘xtash va to‘xtab turish mumkin emasligini anglatuvchi belgilar o‘rnatildi. U yerda transportni qoldirish talabaning kattagina jarima to‘lashini anglatadi. Nima qilish kerak? Nega mas’ullar muammoning yechimini taklif qilmayapti? Aksincha, cheklovlar orqali bir hududni tozalab, umumiy vaziyatni yomonlashtirishmoqda. Bunga kim javob beradi?

Vasila MUZAFFAROVA, talaba.



Jismoniy madaniyat va faollikni qanday oshirish mumkin?

Nega ko‘pchilikda jismoniy faollik kamayib bormoqda, vazn oshishining asosiy sababi nima, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish uchun nimalarga e’tibor berish kerak? Bu haqda viloyat sport faxriylari kengashi raisi, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi, professor Hamroqul Rofiyev o‘z mulohazalarini bildirdi.

86 yoshli faxriy sportchi 71 yildan beri sport bilan shug‘ullanadi. Jismoniy madaniyat atamalari, yengil atletika va gimnastika sport turlari haqida 16 ta o‘quv qo‘llanmasi bor. Sohaga oid to‘rt yuzdan ziyod ilmiy maqolalari chop etilgan. Ayni paytda viloyatda aholi o‘rtasida sog‘lomlashtiruvchi sport tadbirlari va musobaqalarini tashkil qilib kelmoqda.

- Sog‘lom turmush tarzi bugungi kunda dolzarb masalaga aylanib qoldi, - deydi H.Rofiyev. - Chunki odamlarning jismoniy faolligi kun sayin kamayib bormoqda. Jumladan, insonning moddiy, ma’naviy va jismoniy oziqlanishini hisobga olsak, bu tushunchalar bir-birining nisbatini yo‘qotib qo‘ydi. Ya’ni, moddiy oziqlanish kuchayib ketdi, ma’naviy oziqlanish haminqadar, jismoniy oziqlanish esa zarurat uchun bo‘lib qoldi.

MEHNAT QILMAY QO‘YDIK

- Bundan 50-60 yil oldin inson hayotida jismoniy faollik kuchli edi. Uy yumushlari, dehqonchilik ishlari qo‘l mehnati bilan bajarilardi. Ammo keyinchalik texnologiyalar rivojlanib, bunday yumushlarning barchasini zamonaviy uskunalar bajaryapti. Shu bois odamlar jismoniy mehnat qilmay qo‘ydi. Bundan tashqari, oldin avtomobil va zavodlar kam edi, ko‘proq piyoda yurilardi, havoda zaharli moddalar ozligi sabab immunitet yuqori edi. Ana shularning barchasi odamlarning jismoniy faolligini oshirishga xizmat qilardi. Jumladan, o‘sha vaqtlarda ayollar o‘ntagacha farzand ko‘rgan. Lekin kesarcha usulidan foydalanilmagan.

QORIN OBRO‘ EMAS

- So‘nggi yillarda semizlik kasalligiga chalinganlar soni ortib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili 3 millionga yaqin odam semizlik oqibatida vafot etadi. Hozir dunyoda 1 milliarddan ziyod odamda ortiqcha vazn bor. Shundan 380 millionga yaqini o‘smirlar va bolalardir.

Ortiqcha vazn yurak, jigar, buyrak, bo‘g‘imlarga salbiy ta’sir qilishi oqibatida qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, gipertoniyani keltirib chiqaradi. Bularning barchasi noto‘g‘ri ovqatlanish, me’yoridan ko‘p yog‘li taom va shirinliklar tanovul qilish, harakatsizlik, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanmaslik hamda vaqtida tibbiy ko‘rikdan o‘tmaslik natijasidir.

Ayrimlar, hatto yoshlar ham qorinni obro‘ deb bilyapti. Lekin unday emas. Qachonki, inson sog‘lom bo‘lsa, gavda va tana a’zolari, mushaklar bir-biriga muvofiqlashgan holda rivojlansa, obro‘ bo‘ladi. Buning uchun esa sport bilan muntazam shug‘ullanish va yuqorida aytilgan tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq.

AHOLINING JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASI SINOVDAN O‘TKAZILMOQDA. BU BIZGA NIMA BERADI?

- «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi asosida besh yo‘nalishda «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sport sinovlari o‘tkazilmoqda.

Viloyatda ham joriy yilning mart-aprel oylarida 7 yoshdan 17 yoshgacha, aprel-may oylarida 18 yoshdan 29 yoshgacha, avgust-sentabr oylarida 30 yoshdan 49 yoshgacha, oktabr-noyabr oylarida 50 va undan katta yoshdagi shaxslardan hamda davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan sport sinovlari murakkablik darajasini hisobga olgan holda ixtiyoriy va maxsus talablar asosida qabul qilinmoqda. Ushbu amaliyot aholining jismoniy holatini belgilash bilan birga, ommaviy sportga qamrovni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda jismoniy madaniyat va faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir fuqaro sport sinovlarini topshirishni o‘zining burchi deb bilishi va jarayonda faol ishtirok etishi kerak.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV yozib oldi.



Oqtov termalari

Oqtob bag‘ri tosh emas,
Bulog‘i ko‘z yosh emas.
Kakirlagan kakligi
Dilsizga sirdosh emas.

Bunda kutmas osonlar,
Go‘rug‘lisi dostonlar.
Hayqirsa, osmon bilar,
Nomardga qurdosh emas.

Belbovi bor belida,
Donosi ko‘p elida.

O‘tirik o‘rmalamas,
Rangi to‘q, nimdosh emas.

Yashirmayin rost diyar,
Urug‘in siylab, suyar.
Izzat qilar mehmonni,
Chimirilgan qosh emas.

El-ulusi ko‘p nomdor,
Yurt so‘ragan alplar bor.
Suyundik faxr aylar,
Oqtov yolg‘iz bosh emas.

* * *

Torga tordir bu dunyo,
Kengga kengdir bu dunyo.
Bir kelib bir ketarlik,
Bir bor, bir yo‘q bu dunyo.

Tug‘ilishlar yo‘rgaksiz,
Ketishlar boz ko‘ylaksiz.
To‘yimi yo‘q, sabr yo‘q,
Sozu nosoz, bu dunyo.

Yaxshi kimu yomon kim,
Yaxshi-yu yomon hakim.
Nima yolg‘on, nima chin,
Lekin, biroq bu dunyo.

Mard maydonda hamisha,
Nomardda yo‘q andisha.

Yuzsizlar ishi pesha,
Ho‘lu quruq bu dunyo.

Suvi birdir, birdir yer,
Haqdin qo‘yilgan muhr.
Taloshuv tortishuv zo‘r,
Butu yamoq bu dunyo.

Murodiga yetgan bor,
Dodlab sarson o‘tgan bor.
Bariga bitta mozor,
Uzun yuluq bu dunyo.

To‘g‘ri yurgan bo‘lmas xor,
Egrining holi abgor.
Jabbor erur xabardor,
So‘ngi so‘roq bu dunyo.

Suyundik Mustafo NUROTOIY.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 399 nusxada chop etildi. Buyurtma 614. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: A.BAROTOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda